

**MAMLAKATIMIZDAGI TARIXIY, ME'MORIY OBIDALAR.
TOSHKENTDAGI V ASRLIK YODGORLIK.**

Ergasheva Shaxista Abduragim qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy

rassomlik va dizayn instituti

“Muzey menejmenti va madaniy turizm”

yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8129551>

Annotatsiya: Mazkur maqola insoniyat o'z tarixini unutmagan holda tarixiy-madaniy meroslarimizni yanada yaxshi saqlanishiga sharoit yaratib, ta'mirlanish jarayonida qadimiyligini yo'qotmasdan, keyingi avlodlarga ham yetkazish kabi masalalarga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: madrasa, me'moriy obyekt, qorixona, peshtoq, poygumbaz, gumbaz.

Аннотация: Данная статья посвящена таким вопросам, как создание условий для лучшего сохранения нашего историко-культурного наследия, не теряя его древности в процессе ремонта, не забывая при этом историю человечества.

Ключевые слова: медресе, мемориальный объект, фабрика, пешток, постамент, купол.

Annotation: This article is devoted to issues such as creating conditions for better preservation of our historical and cultural heritage, without losing its antiquity in the process of repair, while not forgetting the history of humanity.

Key words: madrasa, memorial object, factory, peshtok, plinth, dome.

Mamlakatimizning birinchi prezidenti Islom Karimov Abdug'aniyevich o'zining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida – “O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q”¹ – deb ta'kidlaganlar. Shu boisdan yurtimiz o'tmishiga nazar tashlagan holda buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan me'moriy obyektlarimizni yanada chuqurroq o'rganib, yaxshi saqlagan holda bizdan keyingi avlodlarga ham yetib borishiga o'z xissamizni qo'shishdan mamnunmiz va bunda davom etamiz.

Tariximiz davomida Temuriylardan keyin, Ashtarxoniylardan oldin bir asr davomida o'z hukmronligini o'tkazgan Shayboniylar sulolasining tariximizda o'chmas iz qoldirgan vakillari juda ko'p bo'lgan. Temuriylar saltanatida uzoq vaqt davomida toj-u taxt uchun boshlangan ayovsiz kurash oqibatida saltanat inqirozga yuz tutgan edi. Qulay vaziyatni qo'ldan boy bermaslik uchun, ko'p

¹ Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asari. Toshkent “Ma'naviyat” 2008



vaqtdan buyon Movarounnahr va Xuroson hududlarini egallashni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan Muhammad Shayboniyxon kurashga kelib qoʻshildi. Temuriylar saltanati avvaldan ikki qismga boʻlingan edi (Amir Temur vafotidan soʻng uning kenja oʻgʻli Shohrux Mirzo kurashda gʻolib chiqib taxtni egalladi va amalda saltanat ikki qismga boʻlindi. Yaʼni Xurosonda Shohrux Mirzo, Movarounnahrda oʻgʻli Mirzo Ulugʻbek hukmronlik qilgan). Muhammad Shayboniyxon Shayboniylar sulolasiga asos soldi. Sulolaning taxirimizda oʻchmas iz qoldirgan Koʻchkunchi Sulton, Suyunchxoʻja Sulton, Mahmud Sulton, Jonibek Sulton, Ubaydullaxon, Abdullaxon II kabi zabardast vakillari boʻlgan. Ulardan esa hozirgacha saqlanib qolingan meʼmoriy obyektlarimiz mavjud. Xususan, Buxoro, Samarqand, Toshkentda mavjud.

Shulardan biz hozir Toshkentda qurilgan Baroqxon madrasasi haqida soʻz yuritamiz. Madrasaning qurilishiga uzoqdan olib qaraydigan boʻlsak, islom dini maktabi sifatida XVI asrda Mirzo Ulugʻbekning nevarasi – oʻsha davrda xalq orasida “Baroqxon” nomi bilan mashhur boʻlgan – Navroʻz Ahmadxon tomonidan barpo etilgan. “Baroqxon” soʻzi “omadli” degan maʼnoni anglatgan. Qurilish tashabbuskori ham, moddiy tomondan taʼminlovchi ham oʻzi boʻlgan. Madrasa 1531-1532-yillarda poydevori toshdan, devorlari esa har xil hajmdagi pishiq gʻishtlardan qalin qilib qurilgan. Hovlisi atrofida hujralari joylashgan, ichki tarafida esa peshtoqi boʻlgan. Madrasaning boshqa tomonlariga qaraganda gʻarbiy qismi biroz oldinga chiqarib qurilgan. Qadimda devor qurilishida poydevori bilan tepa qismining orasida yogʻoch qoʻyilib qurilgan. Bu usul zax tortishning oldini olgan.

Baroqxon madrasasining oʻrnida dastlab ikkita katta va kichik maqbara boʻlgan. Ularda esa ota va oʻgʻilning qabri joylashgan, yaʼni kichik maqbarada Baroqxonning qabri joylashgan, lekin vaqtlar oʻtib Samarqand shahriga koʻchirilgan, katta maqbarada esa Shayboniylar sulolasiga tegishli Toshkentning birinchi hukmdori, Shayboniyxonning oʻgay ukasi Suyunchxoʻjaning qabri joylashgan. Kichik maqbaraning 4 ta eshigi boʻlgan. Keyinchalik esa ulardan faqat bittasi ochiq qolgan, u eshikdan zina orqali maqbaraning tom qismiga chiqish imkoniyati boʻlgan. Katta maqbara esa 1904-yilda masjidga aylantirilgan.

Hozirgi kunda peshtoqning yuqori qismi saqlanmagan. Asosiy peshtoqning orqa tomonida yana peshtoq va besh qirrali ravoq bor. Peshtoq — madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy va boshqa binolarning old tomoni — asosiy kirish qismi. Peshtoq binoning hashamatli baland, bezakdor meʼmoriy boʻlagi boʻlib, odatda, bino devori sathidan bir oz boʻrttirib chiqariladi. Gʻarb tomondagi ichki



peshtoq ko'k gumbazning tarkibiy qismi bo'lgan. Madrasaningning to'rt burchagida cho'ziq xona ya'ni qorixonalar bo'lgan. Qorixona — musulmon o'quv yurtlarining bir turi hisoblanadi. Unda bo'lajak qorilar tayyorlangan. Dastlab arab mamlakaglarida, keyinchalik esa O'rta Osiyoda ham paydo bo'lgan. Qorixonalar, odatda, maktabxonalar qoshida va katta mozorlar yonida ochilgan. Qorixonaga maktabxonani tugatgan 10 yoshdan katta o'g'il bolalar qabul qilingan. Qorixonalar xususiy bo'lib, domlalar daromadi bolalar hisobiga bo'lgan. Qorixonada bolalar 3-4 yil o'qitilgan. O'qish haftaning juma kunidan tashqari har kuni ertalabdan kechgacha davom etgan. Sababi juma musulmonlar bayrami hisoblangan. Diniy bayram kunlari mashg'ulotlar to'xtatilgan. Qorixonalarda, asosan, Qur'on suralari yodlatilgan. Qur'ondagi barcha suralarni yod ayta oladigan bola qorixonani tugatgan hisoblangan. O'rta Osiyoda, ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qonda qorixonalar ko'p bo'lgan. Baroqxon madrasasi shakli va bezaklari o'z holicha saqlanib qolgan. Uning 22 m li gumbazi ko'k sirkor g'ishtchalar bilan pardozlanib bezatilgan. Bu gumbazi esa 1868-yilda sodir bo'lgan zilzila paytida qulab tushgan. Gumbaz ostidagi 4,5 m li poygumbazga turli rangdagi sirkor g'ishtchalardan handasiy va girih naqshlar terib yaratilgan. Poygumbaz — gumbaz o'rnatiladigan qurilma, asos hisoblanadi.² Gumbazning gardishsimon ostki, binoning ustki qismidir. Poygumbaz gumbazni binodan baland ko'tarib, ajratib turadi, unga salobat va ko'rkamlik bag'ishlaydi. Poygumbazning 4 yoki 2 tomonidan darcha ochilib, unga panjaralar ishlanadi. Poygumbaz gumbaz va bino rangiga mos ravishda turli xil koshin, girih naqsh, shakllar bilan bezatiladi. Qur'oni Karim suralari va oyatlaridan bitilgan. Islom dinida so'z muqaddas hisoblanadi. Shuning uchun ham Qur'oni Karimdan parchalar olib, devorlarga va yog'och eshiklarga o'yib yoziladi, shu tariqa inshoot bezatiladi. . Maqbara ichki qismidagi bezaklar keyinchalik esa ko'chib tushgan. Ichki devorning tepa qismida ganchdan ishlangan naqshlar bo'lib, ularga oltin suvi yugurtirilgan. Inshoot islom me'morchiligi uslubida qad ko'targan. Hozirgi kunlarda u davlat mulki hisoblanib, Madaniy me'ros boshqarmasiga tegishlidir. 1946- 1949- 1951-1967-yillarda ta'mirlash ishlari olib borilgan. Shu XX asr davomida olib borilgan ta'mirlash ishlarida xatolikka yo'l qo'yilgan, ya'ni qadimgi bezaklarning qoldig'i ko'chirilib tashlanib, uning o'rniga oq ganch bilan suvalgan. Bu esa bizning tariximizdan so'z ochuvchi, yurtimizda qanday madaniy obyektlar yaratilganligi, uni nimalardan foydalanib bezatilganligini bildirib turuvchi inshootni o'zi tabiat hodisalari orqali yetgan zarar kamlik qilgandek, ta'mirlash jarayonida ham katta

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Baroqxon_madrasasi





xatoga yo'l qo'yilgan. Tushunarli qilib aytadigan bo'lsak, qadimiyligiga putur yetkazilgan. Hozirgi kunda qaysi madaniy yodgorlikni ta'mirlashdan qat'iy nazar uning tarixiyligiga o'zgartirish kiritmagan holda ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda Baroqxon madrasasida O'zbekiston Musulmonlari idorasi joylashgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakat, millat tarixini o'rganish kishi qalbida, milliy iftixor tuyg'usi, sadoqat va shukronalik tuyg'ularini uyg'otadi deyish mumkin. Aynan shuning uchun bu kabi mavzularni yoshlarga yetkazish masalalaridan biri hisoblangan. Yoshlarni tarixiy manbaalardan xabardor qilish, tanishtirish, ilmiy tadqiqot mavzulariga aylantirish har bir davrning ahamiyatga molik va bu kabi mavzularning barhayotligida hissa qo'shish maqsadida yuqoridagi mavzu tanlandi. Atroflicha o'rganildi va tahliliy fikrlar keltirildi.

References:

1. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari. Toshkent "Ma'naviyat" 2008
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Baroqxon_madrasasi
3. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/22-tarixiy-kitoblar?download=2637:abduhad-muhammadjonov-amir-temur-va-temuriylar-saltanati>
4. <https://kitobxon.com/oz/kitob/buxoro-yoxud-movarounnahr-tarixi>

